

ILMIY-AMALIY JURNAL

Impact Factor: 5.394

ISSN 2181-0958

DOI 10.26739/2181-0958

YURISPRUDENSIYA

ЮРИСПРУДЕНЦИЯ | JURISPRUDENCE



7 JILD, 1

2026

YURISPRUDENSIYA

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЮРИСПРУДЕНЦИЯ

ТОМ 7, НОМЕР 1

JURISPRUDENCE

VOLUME 7, ISSUE 1



Bosh muharrir:
Главный редактор:
Chief Editor:

SALAEV NODIRBEK
O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi
professor, Yuridik fanlar doktori.

Bosh muharrir o'rinbosari:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

RUSTAMBEKOV ISLAMBEK
Toshkent davlat yuridik universiteti
Yuridik fanlar doktori, professor.

TAHRIRIY HAY'AT A'ZOLARI | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ |

Mas'ul kotib | Ответственный секретарь | Responsible secretary:

DAVRONOV ATOBEK
Toshkent davlat yuridik universiteti jinoyat-protsessual huquqi kafedrasida o'qituvchisi,
PhD yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori.

KARIMOV FARHOD
Siyosiy fanlar doktori, dotsent,
A. Avloniy nomidagi
Malaka oshirish instituti prorektori;

BAZAROVA DILDORA
Toshkent davlat yuridik universiteti

yuridik fanlar doktori, professor;

IMOMOV NURILLO
Toshkent davlat yuridik universiteti fuqarolik huquqi
kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori, professor;

KHAIRIEV NODIRJON
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
professori, yuridik fanlar doktori, dotsent;

NEMATOV JURABEK
Toshkent davlat yuridik universiteti
ma'muriy va moliyaviy huquq kafedrasida
dotsenti, yuridik fanlar doktori, dotsent;

ISMAILOV SHUKHRATJON
Toshkent davlat yuridik universiteti mehnat
huquqi kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori;

KHABIBULLAEV DAVLATJON
Toshkent davlat yuridik universiteti fuqarolik
protsessual va xo'jalik protsessual huquqi kafedrasida
mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor;

OCHILOV KHASAN
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent;

IBROKHIMOV JAMSHID
Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD);

GAFUROVA NOZIMAKHON
Toshkent davlat yuridik universiteti xalqaro
huquq va inson huquqlari kafedrasida mudiri,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

NARZIEV OTABEK
Toshkent davlat yuridik universiteti xususiy
xalqaro huquq kafedrasida i.o. professori,
yuridik fanlar doktori;

MUSAEV BEKZOD
Toshkent davlat yuridik universiteti
konstitutsiyaviy huquq kafedrasida mudiri, yuridik fanlar
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

MURATAEV SERIKBEK
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dotsenti,
yuridik fanlar nomzodi;

KAMALOVA DILDORA
Yuridik fanlar doktori, professor;

YUSUPOV SARDORBEK
Toshkent davlat yuridik universiteti ma'muriy va
moliyaviy huquq kafedrasida mudiri, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori (PhD), yuridik fanlar doktori, dotsent;

KHUJAEVA SHOKHJAKHON
Toshkent davlat yuridik universiteti
 intellektual mulk huquqi kafedrasida mudiri,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD);

CHORIEVA DILBAR
dotsent, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Page Maker | Верстка | Sahifalovchi: Xurshid Mirzaxmedov

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Kiberjinoyatlarni huquqiy tartibga solish va intellektual mulk va mualliflik huquqini himoya qilishda prokuratura organlarining roli.....	5
Zaynabutdinov Said Axrorbek Ulug'bek o'g'li	
2. Haqiqatni aniqlash prinsipini takomillashtirish masalalari.....	20
Suyunboyev Ixom Oybek o'g'li	
3. Вояга етмаганлар пробацациясида давлат ва жамоат институтлари ҳамкорлиги.....	25
Абжалов Абдижаббор Махаммадиевич	
4. Dalillarning maqbulligini ta'minlashda tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakatining ahamiyati.....	35
Ummatov Muhammadrasul Tursunovich	
5. Oilani mustahkamlash asoslari.....	43
Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna	
6. International legal aspects of the development of the trans-afghan transport corridor.....	49
Muhammadjonov Xojiakbar A'zamjon O'g'li, Firuza Khamdamova	
7. Терроризм билан боғлиқ жиноятларнинг юридик табиати.....	63
Нажмитдинов Нодирхон Амриллохонович	
8. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ижросини таъминлаш этиш ва таъминлаш шакллари ва ўзига хос хусусиятлари.....	66
Якубов Мирзахид Турабаевич	
9. The Arbitration Agreement under Uzbek Law: Consent, Form, and the Limits of Party Autonomy.....	72
Nodirkhon Malikov	
10. Jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ijtimoiy va huquqiy normalarning o'rni.....	86
Abdullayeva Firuza Sharipovna	
11. O'zbekiston Respublikasida kompyuter texnologiyalari vositasida sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olishning huquqiy jihatlari.....	95
Ibroximova Malikaxon Alijon qizi Farruh Tashev Muzaffarovich	

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KOMPYUTER
TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA SODIR ETILADIGAN
JINOYATLARNI OLDINI OLISHNING HUQUQIY JIHATLARI**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20178052>

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
“Xalqaro huquq” fakulteti
1-kurs talabasi Ibroximova Malikaxon Alijon qizi
e-pochta: ibrokhimova.khan@gmail.com
Tel.: +998(94)927-69-07

Ilmiy rahbar:
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
“Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari”
kafedrası katta o‘qituvchisi
Farruh Tashev Muzaffarovich

*Mana shunday murakkab sharoitda yoshlarimiz sezgir va
ogoh bo‘lishi, har bir masalada, avvalo Vatan manfaatlarini
o‘ylab ish tutishi zarur. Ilm-ma‘rifat va kasb-hunarga
intilish, oilani muqaddas bilish, ma‘naviy poklik, kattalarga
hurmat, kichiklarga shafqat, qadriyatlarimizga sadoqat kabi
ezgu fazilatlar azaldan xalqimiz, millatimizning qonida
bo‘lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosimizni
nafaqat asrashimiz, balki uni yanada boyitishimiz, kelgusi
avlodlarga bezavol yetkazishimiz kerak¹.*

Sh.Mirziyoyev

Anotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida kompyuter texnologiyalari orqali sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishning huquqiy jihatlari tahlil etilgan. Hozirgi kunda axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan kiberhujumlarning soni yildan yilga oshib borishi, aksariyat mamlakatlar uchun bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda, jumladan O‘zbekiston ham kiberjinoyatlarning salbiy ta‘siridan chetda qolmayapti. Shuning uchun ham kiberxavfsizlikni ta‘minlash bugungi kunda barcha davlatlar tomonidan hal qilinishi lozim bo‘lgan global muammoligicha qolmoqda. Mazkur maqolada kompyuter

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyev birinchi marta o‘tkazilayotgan O‘zbekiston yoshlari forumiga tashrifi 25.12.2020
<https://share.google/I5sJ8Zr81vY9afQs7>

texnologiyalari orqali vujudga keladigan muammolar va ularning sabablari ko'rib chiqilib, samarali yechimlar taklif qilingan. Shu bilan birgalikda ushbu maqola rivojlangan xorijiy mamlakatlarning kiberjinoyatlardan himoyalanih strategiyalarini ishonchli statistik ma'lumotlar vositasida tahlil qiladi, o'ganadi hamda O'zbekiston Respublikasi kiberhimoyalanganlik darajasi bo'yicha raqobatbardosh tizim yaratishi uchun sinalgan tajribalarni taklif qiladi. Mazkur takliflar amaliyotda qo'llanilishi orqali kiberjinoyatlar sonini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: kompyuter texnologiyalari, kiberjinoyatlar, kiberxavfsizlik, kiberhimoyalanganlik darajasi, kiberxavfsizlik indeksi, kibertahdid.

Аннотация: В данной статье проанализированы правовые аспекты предотвращения преступлений, совершаемых с использованием компьютерных технологий в Республике Узбекистан. В настоящее время с развитием информационных технологий количество кибератак с каждым годом увеличивается, что вызывает ряд проблем для большинства стран, и Узбекистан также не остается в стороне от негативного воздействия киберпреступности. В связи с этим обеспечение кибербезопасности на сегодняшний день остается глобальной проблемой, требующей решения всеми государствами. В статье рассмотрены проблемы, возникающие в результате использования компьютерных технологий, и их причины, а также предложены эффективные пути их решения. Наряду с этим в статье на основе достоверных статистических данных анализируются и изучаются стратегии защиты от киберпреступности, применяемые в развитых зарубежных странах, а также предлагаются проверенные практики для создания конкурентоспособной системы по уровню киберзащищенности в Республике Узбекистан. Предложенные меры могут способствовать снижению уровня киберпреступности при их практическом применении.

Ключевые слова: компьютерные технологии, киберпреступность, кибербезопасность, уровень кибербезопасности, индекс кибербезопасности, киберугроза.

Abstract: This article analyzes the legal aspects of preventing crimes committed through computer technologies in the Republic of Uzbekistan. Currently, with the development of information technologies, the number of cyberattacks is increasing year by year, which is causing a number of problems for most countries, and Uzbekistan is also not immune to the negative impact of cybercrime. Therefore, ensuring cybersecurity remains a global issue that must be addressed by all countries today. The article examines the problems arising from computer technologies and their causes, and proposes effective solutions. At the same time, the article analyzes and studies the strategies of developed foreign countries in protecting against cybercrime based on reliable statistical data, and offers proven practices for creating a competitive system in terms of the level of cybersecurity in the Republic of Uzbekistan. The proposed measures may contribute to reducing the number of cybercrimes when applied in practice.

Keywords: computer technologies, cybercrime, cybersecurity, level of cybersecurity, cybersecurity index, cyber threat.

KIRISH:

Yurtimizda axborot texnologiyalari yildan-yilga rivojlanib bormoqda, biz ushbu jarayonning ijobiy jihatlarini insonlarning ishi osonlashib, vaqtning samarali tejalishi va texnologiyalar taraqqiyoti natijasida fuqarolarning intellektual salohiyati oshib borish jarayoni davomida kuzatishimiz mumkin. Ammo shu bilan birga, axborot texnologiyalarining ijobiy tomonlari bilan parallel ravishda salbiy tomonlariga ham duch kelishimiz tabiiy va bu kiberjinoyatlarning jamiyatda ko'payib borishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Kiberjinoyat o'zi nima? Kiberjinoyat - bu shaxsga yoki shaxslar guruhiga kompyuter texnologiyalari (Internet, elektron pochta yoki ijtimoiy tarmoqlar) orqali sodir etiladigan jinoyatlar bo'lib, ular moliyaviy, huquqiy, ruhiy, hissiy zarar yetkazish maqsadida amalga oshiriladi¹. Kiberjinoyatlar ko'p turli shakllarda sodir bo'ladi, masalan: xakerlik, phishing, identifikatsiya o'g'irligi, kiber haqorat qilish, kriptovalyutalar bilan bog'liq jinoyatlar. Kiberjinoyatlarning har qanday turining oldini olish uchun har bir mamlakatda kiberxavfsizlikni ta'minlashga doir maqsad va vazifalar bo'lishi lozim. Kiberxavfsizlik bugungi kunda rivojlanib borayotgan, O'zbekiston Respublikasi uchun eng dolzarb, ta'minlanishi kerak bo'lgan masalalardan biridir.

ASOSIY QISM:

Tahlil va natijalar: Global kiberxavfsizlik indeksi (GCI)² bu mamlakatlarning global darajada kiberhimoyani ta'minlash qobiliyatini o'lchaydigan ishonchli ma'lumot manbayidir. Indeksning maqsadi – kiberxavfsizlikning ahamiyati va uning turli jihatlarini bo'yicha xabardorlikni oshirishdir. Mamlakatlar kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun bir nechta sohalarida rivojlanish qilishlari lozim. Shu sababdan Global kiberxavfsizlik indeksi mamlakatlarni eng muhim besh kriteriya asosida baholaydi:

1. Qonuniy choralar (legal measures ushbu choralar davlatga kiberxavfsizlikni boshqarish va tartibga solish uchun institutsional tuzilmalar hamda qonunlarni shuningdek, jazo tizimini yaratish imkoniyatini beradi.

2. Tashkiliy choralar (organizational measures) milliy darajada kiberjinoyatchilikni boshqarish va kiberxavfsizlikni rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi institutlar, siyosatlar va strategiyalarning mavjudligiga asoslangan.

3. Texnik choralar (technical measures) faqatgina samarali axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning rivoji va foydalanilishi orqali davlatlar kibertahdidlarni aniqlash, oldini olish, himoya qilishga qodir bo'lishi mumkin.

¹ San Miguel, C., Morales, K., & Ynalvez, M. A. (2020). Online victimization, social media utilization, and cyber crime prevention measures. *Asia-pacific social science review*, 20(4), 11.


² International Telecommunication Union (ITU). (2024). *Global Cybersecurity Index 2024*. Geneva: ITU. <https://share.google/fePwMFhV5e5iuhLyl>

4. Potensialni rivojlantirish (capacity measures) - ilmiy-tadqiqotni rivojlantirish, xabardorlikni oshirish, ta'lim va trening dasturlari, malakali mutaxassislar va davlat organlari orqali salohiyatni rivojlantirishga asoslangan.

5. Hamkorlik (cooperation) - milliy, mintaqaviy va global darajalarda sherikliklar, hamkorlik tizimlari va axborot almashish tarmoqlarining mavjudligiga asoslangan.

Ushbu baholash mezonlari orqali mamlakatlar guruhlariga ajratiladi: birinchi toifa: Rol-model (masalan, Finlandiya, Estoniya), ikkinchi toifa: Rivojlanayotgan (O'zbekiston, Shveysariya), uchinchi toifa: Barpo etilayotgan (Belarusiya, Kuba), to'rtinchi toifa: Takomillashayotgan (Angola, Fiji), beshinchi toifa: Qurilayotgan (Afg'oniston, Marshall orollari).

Ushbu statistik ma'lumotlarga ko'ra, Finlandiya va Estoniya kabi rivojlangan mamlakatlar kiberjinoyatlarga immuniteti yuqori mamlakatlar ichida yetakchilik qilmoqda.



1-rasm. Finlandiyaning Kiberxavfsizlik indeksi bo'yicha ko'rsatkichi ¹

Yuqoridagi grafikdan ma'lumki, Finlandiya har beshta baholash mezonlari bo'yicha maksimal ballarni qo'lga kiritgan. Ya'ni, ushbu davlat mamlakatda kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun har bir sohani rivojlantirishni yo'lga qo'ygan. Jumladan, huquq, qonunchilik sohasida, texnologiya va innovatsiyalar, kiberjinoyatlarga nisbatan aholida immunitetning mavjudligi, tashkiliy ishlar va xalqaro hamkorlik. Huquq va qonunchilik nuqtai nazaridan Finlandiya O'zbekiston Respublikasiga nisbatan og'irroq jazo choralarini joriy etgan. Finlandiya Jinoyat

¹ Manba: Global Cybersecurity Index 5th Edition ma'lumotlari asosida muallif tarjimasi.

<https://share.google/7x0MC1u0Q4K9oGKv1>


Kodeksining 38-bobi (39/1889, Jinoyat Kodeksi¹) ma'lumot va kommunikatsiya huquqbuzarliklariga oid jinoyatlarga ta'rif va jazo choralari belgilab qo'yilgan.

Finlandiyadan tashqari Yevropa mamlakatlarining aksariyat qismi kiberxavfsizlikni ta'minlaganlik darajasi bo'yicha birinchi toifaga kiradi. Asosiy sabablardan biri GDPR (General Data Protection Regulation) - Yevropa Ittifoqi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi umumiy reglament hisoblanadi. Ushbu qonunda kiberxavfsizlik sohasi uchun ma'sul organlar belgilab qo'yilgan hamda ularga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarmaganlik uchun qat'iy jazo choralari jumladan, jarima jazosi joriy qilingan.

Global kiberxavfsizlik indeksi statistik ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston kiberxavfsizlik rivojlanishi bo'yicha boshqa rivojlangan mamlakatlar bilan sezilarli darajada raqobatbardosh bo'lib bormoqda.

O'zbekiston

GCI 5-nashr mamlakat profili



Mamlakat ko'rsatkichi

har bir yo'nalish bo'yicha maksimal 20 ball dan

Huquqiy choralar	Texnik choralar	Tashkiliy choralar	Salohiyatni rivojlantirish	Salohiyatni rivojlantirish
19.59	16.22	15.75	17.64	20

Nisbiy ustunlik sohalari

- Hamkorlik choralari
- Huquqiy choralar
- Salohiyatni rivojlantirish choralari

Rivojlanish salohiyati mavjud sohalari

- Texnik choralar
- Tashkiliy choralar

Daraja ko'rsatkichi

T2: Rivojlanayotgan



2-rasm. O'zbekistonning Kiberxavfsizlik indeksi bo'yicha ko'rsatkichi²

Ushbu grafikdan ma'lumki, O'zbekiston global kiberxavfsizlik indeksi guruhlari bo'yicha ikkinchi toifaga ya'ni rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Ushbu toifaga Avstriya, Isroil va Rossiya kabi davlatlar ham kiradi. Avvalroq, 2021-yilda O'zbekiston 71,11 ballni qayd etgan bo'lsa, keyingi yillarda sezilarli darajada o'sishni ko'rsatdi: 2024-yil 89,2 ballni qo'lga kiritgan holda o'z mavqeini Kiberxavfsizlik indeksida yanada yaxshilagan. Bu natijaga erishish uchun O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizligi to'g'risida"gi qonun³ (15.04.2022

¹ Finlandiya Jinoyat Kodeksi: <https://share.google/lnKfJhevbSqIKr6e1>

(Hujjatdan 2026 yil 1-aprel sanasida foydalanildi)

² Manba: Global Cybersecurity Index 5th Edition ma'lumotlari asosida muallif tarjimasini.

<https://share.google/7x0MC1u0Q4K9oGKv1>

³ O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi rasmiy portali: <https://lex.uz/uz/docs/-5960604#-5963349>

yildagi O'RQ-764-son) qabul qilindi va ushbu qonunda kiberhimoyani ta'minlash maqsadida kiberxavfsizlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash vazifalari belgilab qo'yildi. Bundan tashqari ushbu sohada O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish maqsadida bir qancha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni (10.03.2026 sanasidagi PF-38-son), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (09.04.2024 sanasidagi 4246-IV-son), O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining qarori (08.04.2024 sanasidagi 4236-IV-son) kabi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Ammo grafikdan ko'rinib turibdiki, texnik va tashkiliy mezonlar bo'yicha rivojlantirish kerak bo'lgan bir qancha jihatlar mavjud.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylanayotgan bir paytda, aksariyat mamlakatlar kiberxavfsizlik sohasidagi bir qancha global muammolarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarning keltirib chiqarayotgan zararli oqibatlari sabab, ko'plab mamlakatlar iqtisodiy yo'qotishlarni boshdan kechirishmoqda.



3-rasm. 2015–2029 yillarda global kiberjinoyatlar natijasidagi moliyaviy zararlar dinamikasi¹

(Hujjatdan 2026 yil 1-aprel sanasida foydalanildi)

¹ Manba: Cybersecurity Ventures StationX. (2026). <https://share.google/cljUfpbzWCXGtazAD>

StationX (2026)¹ ma'lumotlariga ko'ra, kompyuter texnologilari orqali amalga oshiriladigan jinoyatlar soni 2015 yildan boshlab, yildan-yilga oshib bormoqda. Xususan, 2015-yilda kiberjinoyatlar orqali yetkazilgan zarar 3 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2025 yilga kelib ushbu qiymat deyarli to'rt barobarga oshgan. Ushbu diagramma 2015-2029 yillarni o'z ichiga qamrab olib, 2029 yilgi prognoz 15,5 trillion dollarga yetishi kutilmoqda. Grafikdan ko'rinib turibdiki, kiberxavfsizlik nafaqat bitta davlat yoki hudud muammosi, balki global muammo hisoblanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi ham, boshqa rivojlangan mamlakatlar singari, kiberxavfsizlik sohasidagi qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Jumladan, 2021–2025-yillarda O'zbekistonda kiberjinoyatlar soni 11 baravarga ya'ni 4865 tadan 62440 tagacha ortgan. Ushbu kiberjinoyatlarning aksariyat qismi bank kartalariga noqonuniy ulanish va ulardan yolg'on ma'lumotlar taqdim etgan holda talon-taroj qilishni tashkil etadi. Buning oqibatida fuqarolarga 3 trillion 730 milliard so'm zarar yetkazilgan. Shundan 1 trillon 890 milliard so'm qismi 2025 yilning dastlabki 11 oyi hissasiga to'g'ri keladi². Ushbu ko'rsatkichlarning yildan-yilga o'sib borayotgani xavotirli holatdir – kiberjinoyatlar hisobi uzluksiz oshib bormoqda.

Tarixdan ma'lumki, jamiyatda ijtimoiy munosabatlar o'zgarishi bilan, mamlakatdagi huquq tizimiga ham o'zgartirish kiritiladi. Sabab – huquq ya'ni qonun, qaror va kodekslar davlat, jamiyat va fuqaro o'rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Shunday ekan, O'zbekiston Respublikasida ham yangi va kundan-kunga rivojlanib borayotgan ijtimoiy munosabatni tartibga solish uchun qonunchilik ijodkorligiga ehtiyoj mavjud. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksida³ “Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar” nomli bob mavjud (XX¹ bob), ammo ushbu bobda jamiyatda endi paydo bo'layotgan kiberjinoyatlar haqida moddalar mavjud emas. Shu sababdan, “kiberxavfsizlikka oid jinoyatlar” bobini yaratish taklif qilinadi, va ushbu bobda ommalashayotgan kiberjinoyatlar uchun javobgarlik tizimini og'irlashtirilgan tarzda joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan grafikdan xulosa qilib, O'zbekiston Respublikasiga kibertahdidlarga qarshi kurashish jarayonida, nisbatan past baholangan mezonlar bo'yicha rivojlanish strategiyasini tuzish taklif qilinadi. Jumladan, asosiy e'tibor tashkiliy va texnik chora-tadbirlarga qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Tashkiliy jihatdan barqarorlikka erishish uchun, O'zbekiston kompyuter texnologiyalari orqali sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish jarayonida bir qator vazifalarga duch keladi: milliy kiberxavfsizlik strategiyasini ishlab chiqarish, ma'sul organlarni belgilash, institutlar va boshqaruv tuzilmalarini yanada takomillashtirish. Texnik jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, kiberxavfsizlik infratuzilmasini mustahkamlash, samarali axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va shu sohada malakali mutaxassislarni yetishtirish. Bu sa'y-harakatlar orqali O'zbekiston

¹ Cybersecurity Ventures StationX. (2026). <https://share.google/cljUfpbzWCXGtazAD>

² O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi ro'yxatidan o'tgan Ommaviy Axborot Vositasi Gazeta.uz <https://share.google/TcpxPcQe3YMZFWTH>

³ O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi rasmiy portali: <https://lex.uz/docs/-111453#-1300038>

(Hujjatdan 2026 yil 1-aprel sanasida foydalanildi)

Respublikasida barqaror rivojlanish va sodir bo'layotgan kiberjinoyat va tahdidlarning miqdorini sezilarli darajada pasaytirish mumkin.

XULOSA:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, biz yashayotgan davrda kompyuter-texnologiyalarning jadallik bilan rivojlanishi, axborotlarning keskin va uzluksiz almashinishi hamda uning salbiy va ijobiy jihatlarining sezilarli ta'siri XXI asr - "Texnologiyalar asri" deya nomlanishining asosiy sabablaridandir. Shu sababdan, texnologiyalarning ijobiy tomonlaridan samarali foydalanish orqali uning salbiy tomonlari jumladan, kiberjinoyat va tahdidlarni yengish mumkin. Shuningdek, kiberjinoyat turlarining doimiy rivojlanishiga qarshi barqaror chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Zero, Bryus Shnayyer (amerikalik kiberxavfsizlik mutaxassisi, kriptograf va yozuvchi) aytganidek: "Xavfsizlik bir martalik voqea emas, balki doimiy jarayondir."

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axralovna, S. N., & Valijon o'g'li, O. O. (2025). Kiberxavfsizlik 2025-yilda: O'zbekistonda onlayn firibgarliklardan qanday himoyalaniish mumkin. *Global Science Review*, 9(1), 205-214.
2. Baxromovich, A. A. (2025). Xalqaro huquqda kiberxavfsizlik masalalari: Yangi tahdidlar va global huquqiy yechimlar. *New Scientific Perspectives at the Intersection of Language, Culture, and Technology*, 1(2), 105-108.
3. Dilshodjon o'g'li, H. I., & Ne'matjonovich, P. L. S. (2025). Rivojlanayotgan mamlakatlarda kiberjinoyatlar va ularning huquqiy jihatlari tahlili. *Yangi O'zbekiston, Yangi Tadqiqotlar Jurnali*, 3(4), 297-305.
4. Finlandiya Jinoyat Kodeksi. (t.y.). <https://share.google/lnKfJhcvbSqIKr6e1>
5. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. (1994). <https://lex.uz/docs/-111453#-1300038>
6. San Miguel, C., Morales, K., & Ynalvez, M. A. (2020). Online victimization, social media utilization, and cybercrime prevention measures. *Asia-Pacific Social Science Review*, 20(4), 11.

YURISPRUDENSIYA

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЮРИСПРУДЕНЦИЯ

ТОМ 7, НОМЕР 1

JURISPRUDENCE

VOLUME 7, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000